

## JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARIDA IJTIMOIIY SHAXSIY KOMPITENTLIKNI RIVOJLANTIRISH

Mirzayev Saidmaxmud

Namangan davlat universiteti Jismoniy tarbiya va amaliy sport turlari kafedrasida b.f.n dotsent

E-mail: [mirzayevs@gmail.com](mailto:mirzayevs@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18438480>

**Annotatsiya:** Maqola, umumta’lim maktabi o‘quvchilarini ko‘p jixatdan kamol topishi, yurtimizda o‘tkazilayotgan islohotlarning samarasi, ijtimoiy shaxsiy kompetentlikni rivojlantirish, o‘zib kelayotgan yosh avlodning salomatligiga bag‘ishlangan.

**Kalit so‘zlar:** jismoniy madaniyat, ta’lim, me’yoriy, transformativ, kognitiv, qiymatga yo‘naltirilgan, kommunikativ, kasbiy kompetentlik, amaliy leksikon.

## DEVELOPMENT OF SOCIAL-PERSONAL COMPETENCE IN PHYSICAL EDUCATION TEACHERS

Mirzayev Saidmakhmud

Namangan State University, Department of Physical Education and Applied Sports, Ph.D.

associate professor

E-mail: [mirzayevs@gmail.com](mailto:mirzayevs@gmail.com)

**Abstract:** The article examines the importance of improving the methodological training of physical education teachers and developing socio-personal competence as a scientific and pedagogical problem. It summarizes the views of foreign and domestic researchers. The principles, theoretical and pedagogical aspects of the professional development of physical education teachers are scientifically based.

**Keywords:** development of socio-personal competence, self-development, continuous professional development, professional needs, the principle of “lifelong learning”.

## РАЗВИТИЕ СОЦИАЛЬНО-ЛИЧНОСТНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ».

Мирзаев Саидмахмуд

Наманганский государственный университет, кафедра физического воспитания и прикладных спортивных дисциплин, доцент

E-mail: [mirzayevs@gmail.com](mailto:mirzayevs@gmail.com)

**Аннотация:** В статье рассматривается актуальность совершенствования методической подготовки учителей физической культуры и развития социально-личностной компетентности как научно-педагогической проблемы. Обобщены взгляды зарубежных и отечественных исследователей. Научно обоснованы принципы и теоретико-педагогические аспекты профессионального развития учителей физической культуры.

**Ключевые слова:** развитие социально-личностной компетентности, саморазвитие, непрерывное профессиональное развитие, профессиональные потребности, принцип «обучения в течение всей жизни».

## KIRISH

Yurtimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bu ham jismoniy, ham ma’naviy sog‘lom bo‘lgan avlodni kamol toptirish hisoblanadi. Zero, bugun dunyo mamlakatlarida

keskinlashayotgan globallashuv jarayonlari sharoitida yuksak ma'naviyatli va jismoniy barkamol avlodni tarbiyalash Vatanimiz kelajagini belgilab beruvchi va xalqimizning ezgu maqsadlarini ro'yobga chiqaruvchi eng muhim omillardan biridir. Bu ezgu amalning amalga oshirilishida uning huquqiy asoslari ham yaratilgan bo'lib, keng qamrovli ishlar qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 3-iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3031-son Qarori va 2018 yil 5-martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5368-son Farmoni bu sohani yanada rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Ushbu farmon va qarorlarning asosiy maqsadlaridan biri ham bu sohadagi nazariy va amaliy bilimlarni yanada chuqurlashtirish, jismoniy tarbiyaga oid ko'nikma va malakalarga doir tushuncha hamda atamalarni to'g'ri shakllantirishdan iborat. Jismoniy tarbiya o'qituvchilarida kasbiy kompetentligini rivojlantirishda jismoniy madaniyatning o'rni beqiyos. Ushbu maqolada bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida kasbiy kompetentligini rivojlantirishda jismoniy madaniyatning o'rni va ahamiyati haqida so'z borgan.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

F.A.Kerimovning (2020) fikriga asoslanib, sport turlarining o'ziga xos xususiyatlari hamda asosiy tarkibiy qismlarini shakllantirish yuzasidan kerakli ma'lumotlarni, sportchilarni tayyorlashining zarurati nufuzli musobaqalarda qatnashish uchun (masalan, Yevropa yoki Jahon chempionatlarida, Olimpiya o'yinlarida); individual moslashuvchan imkoniyatlar sportchilarning, jismoniy tayyorgarligining tuzilishi, avvalgi mashg'ulotlarning mazmuni bir yillik o'qitishning zamonaviy tizimi XX asrning 20-yillaridan boshlab o'nlab yillar davomida shakllangan va jadal rivojlanish asosida hozirgi vaqtda takomillashtirilgan fan yutuqlari hisoblanadi. Asosan bir yillik mashg'ulotlar xususiyati bu nisbatan mustaqil tarkibiy qismlar asosida qurilgan deb, barcha elementlar jumladan umumiy pedagogik vazifa bu – sportchining eng yuqori tayyorgarlik holatiga erishish hisoblanib, muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlash asosiy musobaqalarda qo'llay olishi tushuniladi [3; 79 b].

Ishning maqsadi: Namangan davlat universitetida jismoniy tarbiya o'qituvchilarida nazariy va amaliy mashg'ulot jarayonida ijtimoiy shaxsiy kompetentlikni rivojlantirish amalga oshirildi.

### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Mamlakatimizda sog'lom turmush tarzini tashkil etish, aholining, ayniqsa yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sado qat tuyg'ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiyani yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Darhaqiqat, hozirgi globallashuv jarayonlari tobora keskinlashayotgan bir davrda bevosita yoshlarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi bilan shug'ullanuvchi jismoniy tarbiya o'qituvchilariga qaratilayotgan e'tibor bu borada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, ularning muhim xizmatlaridan biri shundaki, o'quvchi-talabalarni tarbiyaviy, madaniy, tibbiy, sanoat qurilish, ishlab chiqarish kabi kasb-hunarga yo'naltirish bo'lsa, ikkinchidan ularni maxsus jismoniy tayyorgarlik bilan qurollanishga ma'lum darajada xizmat qiladi.

Bugungi kunda yosh avlodga ta'lim berayotgan o'qituvchilarning o'zlari zamonaviy innovatsion texnologiyalarni to'liq o'zlashtirgan, axborot-kommunikatsiya vositalaridan oqilona

foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishlari, umuman barcha ta'lim-tarbiya sirlaridan voqif bo'lishlari talab etiladi.

Bo'lg'usi jismoniy tarbiya o'qituvchilari ilmiy pedagogik faoliyati bilan bog'liq masalalarni o'rganishda, eng avvalo, mazkur hodisaga oid tushunchalarning mazmun-mohiyatini tahlil etish maqsadga muvofiqdir. Xususan, "jismoniy tarbiya" tushunchasining o'ziga bir qancha ta'riflar berilganligini ko'rishimiz mumkin. "Jismoniy tarbiya - pedagogik jarayon bo'lib, inson organizmini morfologik va funksional jihatdan takomillashtirishga, uning hayoti uchun muhim bo'lgan asosiy harakat malakasini, mahoratini, ular bilan bog'liq bo'lgan bilimlarni shakllantirish va yaxshilashga qaratilgan". "Jismoniy tarbiya organizmni har tomonlama chiniqtirishga qaratilgan, sog'liqni mustahkamlashni nazarda tutgan tarbiya, jismoniy mashqlar" kabi ta'riflar berilgan

Zamonaviy dunyoda jismoniy madaniyatning inson va jamiyat tabiatini takomillashtirish omili sifatidagi, jismoniy tarbiya o'qituvchilarida ijtimoiy shaxsiy kompetentlikni rivojlantirish roli sezilarli darajada oshib bormoqda.

Bugungi kunda bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisi doimo o'quvchilarga jismoniy mashqlarni yetkazish bilan birgalikda parallel ravishda uning ta'lim va tarbiyasi bilan shug'ullanib, u bilan o'zaro muloqot olib boradi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisining pedagogik faoliyatida o'qituvchilik kasbiga sadoqatli bo'lish, o'z fanini o'qitish metodikasini mukammal bilishi, pedagogic qobiliyatlarini namoyish eta olishi, pedagogik texnikani o'z o'rnida qo'llay bilishi eng muhim komponentlardan bo'lib hisoblanadi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida kasbiy kompetentligini rivojlantirish jismoniy madaniyatning o'rni haqida gapirar ekanmiz avvalo bu tushunchaning tarixiga naar tashlashimiz maqsadga muvofiq.

"Jismoniy tarbiya" "Zamonaviy dunyoda" innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya madaniyat" atamasi o'zi-asrning oxirida Angliyada sportning jadal rivojlanishi davrida paydo bo'lgan, ammo G'arbda keng qo'llanilmagan va vaqt o'tishi bilan kundalik hayotdan deyarli yo'qolib ketgan. Rossiyada esa aksincha, 20-asrning boshidan, 1917 yil inqilobidan so'ng, "jismoniy madaniyat" atamasi barcha oliy Sovet hokimiyatlarida tan olinib boshladi va ilmiy va amaliy leksikonga mustahkam kirib bordi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchilarida kasbiy kompetentligini rivojlantirishda jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati, ularni kundalik hayotga joriy etish tobora ortib bormoqda. Jismoniy tarbiya va sport insonni hayotga tayyorlaydi, tanasini chiniqtiradi va sog'lig'ini mustahkamlaydi, uning barkamol jismoniy rivojlanishiga hissa qo'shadi, xalq xo'jaligining bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun kasbiy mehnatda zarur bo'lgan shaxsiy fazilatlarni, axloqiy va jismoniy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchilarida kasbiy kompetentligini rivojlantirishda jismoniy madaniyat haqidagi zamonaviy g'oyalar uni umumiy madaniyatning o'ziga xos qismi sifatida baholash bilan bog'liq.

Jismoniy tarbiya o'qituvchilarida jismoniy madaniyatini oshirish deganda jismoniy mashqlar jarayonida orttirilgan va insonning jismoniy tabiatini (jismoniyligini) har tomonlama va uyg'un ravishda yaxshilashga, sog'lom turmush tarzini olib borishga faol intilishida ifodalangan insoniy xususiyatlar majmui tushuniladi. U tashabbuskorlik, mustaqillik va ijodkorlikni faol rivojlantiradi, o'z dunyoqarashi va fikrlash usullarini, individual xarakter

xususiyatlarini, boshqa odamlarning harakatlariga va o'z harakatlariga tanqidiy munosabatni shakllantiradi.

Shu jihatdan olganda, bo'lg'usi jismoniy tarbiya o'qituvchilari ilmiy pedagogik faoliyati davomida quyidagilarga alohida e'tibor qaratishi lozim deb hisoblaymiz:

- jismoniy tarbiyaga doir bilimlar tizimini mukammal egallagan bo'lishi;
- jismoniy mashqlarni o'quvchilarga to'laqonli yetkaza olish ko'nikma va malakasiga egaligi;
- o'z fanini o'zlashtirganligi bilan birgalikda umummetodologik fanlar asosini, xususan davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi;
- atrofda sodir bo'layotgan ijtimoiy muammolar va jarayonlarni o'z nuqtai nazardan mustaqil tahlil qila olishi;
- o'quv jarayoni davomida o'quvchilarning ma'naviy qiyofasi haqida bilimlarga ega bo'lib borishi;
- o'quvchilarning yoshga doir xususiyatlaridan kelib chiqib, zamonaviy pedagogik va psixologik bilimlarni o'rnida qo'llay olishi;
- vujudga kelgan yangi bilimlarni mustaqil ravishda o'zlashtirishi, takomillashtirishi va o'z mehnat faoliyatida ilmiy asosda foydalana olishi;
- o'z ilmiy pedagogik faoliyatida me'yoriy huquqiy hujjatlardan individual foydalana olishi;
- muommala madaniyatiga rioya qilishi;
- o'zlashtirilgan bilimlarni tanqidiy yondashuv asosida tahlil qila olishi;
- o'zlashtirgan bilimlarini o'quvchilarga aniq yetkaza olishi;
- o'z kasbga nisbatan mas'uliyat hissining shakllanganligi;
- pedagogik faoliyati davomida xorijiy tillardan birini kasbiy malaka yoki ilmiy muloqot almashish vositasi sifatida egallagan bo'lishi;
- zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalana olishi;
- pedagogik faoliyatida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llay olishi va hakozi.

Shuningdek, bo'lg'usi jismoniy tarbiya o'qituvchilari o'z pedagogik faoliyatlarida qo'llaniladigan jismoniy madaniyat atamalarini mukammal bilishlari shart. Albatta, o'qituvchi tomonidan atamalarning tushunarli tarzda aniq va o'z o'rnida qo'llanilishi o'quvchining jismoniy tayyorgarlik sifatini ham yaxshi bo'lishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Darhaqiqat, har birimiz kundalik hayotimizda jismoniy madaniyat atamalaridan bugun keng foydalanamiz. Deyarli, ta'lim muassasalarida mavjud barcha fanlarda ularni uchratishimiz va u bilan to'qnashish mumkin.

Bo'lg'usi jismoniy tarbiya o'qituvchilari o'z pedagogik faoliyatida o'quvchilar bilan ishlash jarayonida teran, ta'sirli, mantiqli, chiroyli gapira olishi va o'z o'rnida tarbiyaviy ahamiyatga molik iboralardan o'rnida to'g'ri foydalana olishi zarur. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, o'qituvchining nutqi har bir o'quvchi uchun ibrat manbai bo'lib, hatto beparvolik bilan uning jahlini chiqarib, intizomni buzib turgan o'quvchiga nisbatan qo'pol muomala, haqoratlash, kamsitish, shaxsiyatiga tegish bilan emas, balki pozitiv yondashgan holda vaziyatdan chiqib ketish xususiyatiga ega bo'lishi kerak. O'qituvchi dars mashg'ulotini olib borar ekan, uning ovozi auditoriyani boshqarish quroli bo'lishi lozim.

Kompetentlik bo'lajak o'qituvchining o'quvchilarni o'quv mashg'ulotlari jarayonida an'anaviy yondoshuv va fikrlashidan farqli ravishda mashg'ulot samaradorligini ta'minlashga qaratilgan yangi g'oyalarni yaratish va mavjud muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligi, aniq maqsadga erishish uchun mavjud muammolarni yechimini topish va uni

bartaraf etish qobiliyati shakllanganligi, tasodifan yuzaga kelgan muammolarni oqilona, tezkorlik bilan hal qilinishiga yordam beradi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchilarida ijtimoiy shaxsiy kompetentlik quyidagi hollarda namoyon bo'lishini ko'rish mumkin:

- o'qituvchi fikri va nutqining ravonligi;
- o'qituvchi o'z fikrni aniq belgilangan maqsadga muvofiq yo'naltira olishi;
- o'qituvchining ijodkorligidagi o'ziga xoslik (originallik);
- o'qituvchidagi qiziquvchanlik, yangi g'oyalarni yaratuvchanlik, fantaziyasining kengligi, farazlar yaratish qobiliyati;
- o'quvchining qobiliyatini, layoqatini o'rganish va uni aniq baholash;
- o'qituvchi fan metodikasini o'zlashtirgan va ta'lim jarayoniga tatbiq etishi;
- o'qituvchi fan yutuqlariga oid yangi ma'lumotlar bo'yicha hamkasblari bilan ijodiy fikr almashishi;
- o'qituvchi sohasiga oid ilg'or xorijiy tajribalarni mustaqil o'rganishi va amaliyotda qo'llay bilishi;
- o'qituvchi uzluksiz ravishda o'z bilimi, ko'nikma va malakasini oshirib borishi;
- o'qituvchi o'quvchining ishonchiga kira olishi, uning qalbiga yo'l topa olishi va u bilan muloqot bog'lay olishi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida kasbiy kompetentligini rivojlantirishda jismoniy madaniyat natijasida qo'lga kiritilgan bu ijobiy xususiyatlarning barchasi shaxsni nafaqat jismoniy madaniyatli shaxs sifatida, balki har tomonlama va barkamol rivojlangan, shaxsning umumiy madaniyatining yuqori darajasini aks ettiruvchi yaxlit shaxs sifatida tavsiflanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, har bir jismoniy tarbiya o'qituvchisi doimo o'quvchilarga jismoniy mashqlarni yetkazish bilan birgalikda parallel ravishda uning ta'lim va tarbiyasi bilan shug'ullanib, u bilan o'zaro muloqot olib boradi. Har bir o'quvchi aqliy, ruhiy va jismoniy jihatdan doimo rivojlanishda bo'lganligi sababli ham bo'lajak o'qituvchi ular bilan doimiy muloqotda bo'lishi, ularning har bir psixologik xarakteri va fiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'sir ko'rsatish mexanizmlarini, avvalo, psixologiya va tarbiya nazariyasini mukammal tarzda o'rganib, o'z kasbiy faoliyatini doimiy rivojlantirib borishi zarur.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3031sonli Qarori.
2. K.D. Yarashev «Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish» Toshkent Abu Ali
3. Ibn Sino nashriyoti 2002-yil.
4. Zimnyaya I.A. Asosiy kompetensiyalar ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvning samarali-maqsadli asosi sifatida / I.A.Zimnyaya. - M., 2004. --- 381b.
5. Kuxarev I.V. Professional mukammallik yo'lida: Kitob. o'qituvchi uchun. - M.: Ta'lim, 2001. - 159. - (O'qituvchining mahorati; g'oyalar, maslahatlar, takliflar). - 159 b.
6. Xutorskoy, A.V. Ta'lim standartlarining umumiy fan mazmuni / .V.Xutorskoy.-M., 2002 y.